

MILLIY XALQ HUNARMANDCHILIGINING O'ZIGA XOSLIGI

Doniyorova Shahnoza Erkinovna

**A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lif kafedrasi o'qituvchisi, Jizzax,
O'zbekiston**

e-mail:shaxnozadoniyorova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada milliy xalq hunarmandchilik turlari texnologiyasining o'ziga xosligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Amaliy san'at, tas'viri san'at, hunarmandchilik, rassomchilik, haykaltaroshlik, naqqoshchilik, zardo'zlik, kashtachilik, quroqchilik, zargarlik, do'ppichilik.

Аннотация: В статье раскрывается специфика технологии народных промыслов

Ключевые слова: прикладное искусство, изобразительное искусство, ремесла, живопись, скульптура, живопись, ювелирное дело, вышивка, ткачество, ювелирные украшения, доппи.

Annotation: The article discusses the specifics of the technology of national handicrafts.

Keywords: Applied arts, fine arts, handicrafts, painting, sculpture, painting, goldsmithing, embroidery, weaving, jewelry, doppi.

Milliy xalq hunarmandchiliği moddiy ma'daniyatimizning eng qadimiyligi muhim turlaridan hisoblanib, tasviriy va amaliy san'atining ko'pdan-ko'p sohalari bilan uyg'unlashib ketgan. Ammo, tasviriy va amaliy san'at, buyumlarga badiiy ishlov berish jarayonining hamda milliy xalq xunarmandchiligining o'ziga xosligi, yo'llari, uslublarini bir biridan farqlash va ajratish juda muhimdir. Shuning uchun yoshlarimizni milliylik ruhida tarbiyalashda muhim o'rinni tutadigan xalqimizning boy o'tmishini tasdiqlaydigan milliy xalq hunarmandchiliga asoslangan moddiy ma'naviyat va milliy madaniyatning ushbu sohalarini mavjud ta'riflarini keltirib, qu'yidagicha taqqoslash mumkin.

Tasviriy san'at – san'at turi bo'lib, rassomlik, grafika, xaykaltaroshlik va foto san'ati sohalarini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'nat real borliqni ko'rgazmali obrazlarda, mavjud predmetlarni ularning tabiiy shakli, o'rni bo'lishini o'ziga o'xshatib, umumlashtirib va tipiklashtirib ifodalaydi.

Amaliy bezakchilik san'ati – tasviriy san'atining eng qadimgi turlaridan biri, va materialga bezak texnikasiga qarab farqlanib, xalq milliy turmush madaniyatini

xarak terlaydi. Amaliy bezak san'ati buyumlarining badiyligi shu buyumlarining amaliy funksiyasi bilan bog'liq bo'ladi.

Hunarmandchilik – hunarmand, har-xil oddiy mehnat qurollari yordamida xom-ashyodan turli mahsulotlar tayyorlanadigan ishlab chiqarish, shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiyligi nomi.

Respublikamizdagi xalq hunarmandchiligining Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus, Xiva, Termiz, Urganch, Namangan, Andijon, Farg'ona, Chust, Shaxrisabz va boshqa markazlarning ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos bo'lib, o'ziga xosligi jixatdan bir -biridan ajralib turadi.

Xalq amaliy bezak san'ati tarixiy jismga badiiy ishlov berish faoliyatidan boshlangan. Inson badiiy-ijodiy tafakkuri mahsuli bo'lgan bu faoliyat tosh asrida paydo bo'lgan va uning yashashi uchun go'zal muhit yaratishga xizmat qilgan. Bundan tashqari, bu faoliyat inson qalbida komillikka va erkinlikka intilishni kuchaytirgan hamda unga cheksiz imkoniyatlar sohibi ekanligini anglatgan. O'z navbatida inson ongi va tafakkuri rivojlanib, ma'naviy ehtiyojlarini ortib borishi bilan mazkur san'atning mazmuni, turlari hamda badiiy ifoda vositalari boyib, rivoj topib borgan. Xalq amaliy bezak san'ati naqshlar asosida buyumlarga badiiy ishlov berishdan iboratdir. Naqshlar jismga turli yo'llar va vositalar yordamida tushirilgan: chizib, o'yib, zarb bilan, qadab, qo'l choklari yordamida, to'qib, gul san'ati hamda xalq hunarmandchiligi quyidagi qator turlarining paydo bo'lshiga olib kelgan: naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, zargarlik, ganchkorlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, xaykaltaroshlik, o'ymakorlik, toshtaroshlik, kulolchilik, ko'nchilik, pichoqchilik, do'ppichilik, kashtachilik, quroqchilik, zarduzlik, zargarlik va hokazo (2-ilova).

Ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan o'zbek milliy xalq amaliy bezak san'ati bugungi kunda umuminsoniyat madaniyatida muhim o'rinni egallaydi. O'zbek milliy xalq amaliy san'ati namunalari jahonga mashhur bo'lib, dunyoning turli shaharlaridagi san'at va etnografiya muzeylaridan o'rinni

olgan. Ayniqsa, mustaqillikdan so'ng mazkur san'at asarlari xalqimiz nomini butun dunyoga tanitishda katta rol o'yamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sharipov Sh. va boshq.Texnologiya. Umumiy o'rta ta'lif mifikalarining 7-sinfi uchun darslik, T, "Sharq".
- 2.Zohidova.D.A Hunarmandchilikka kirish, Metodik tavsiyanoma. Toshkent, 2001.
3. Mazur V.A. Davidova F.T. Milliy hunarmandchilikka o'qitish jarayoni mazmuni va uni tashkil qilish Metodik tavsiyanoma,B.Rahimjonov tarjimasi. Toshkent, 1995.
- 4.S.S. Bulatov. O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent, 1991.
- 5.X.B.Muhammedova. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning xalq hunarmandchiligiga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish metodikalari.